



HUQUQ, ARXIV VA DAVLAT XIZMATLARI
SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA ARXIV FAOLIYATI



“Arxiv hujjatlarini saqlash va arxiv faoliyati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Huquq, arxiv va davlat xizmatlari sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Arxiv hujjatlarini saqlash va arxiv faoliyati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0132



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart tegishli kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni mustaqil baholash, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

arxiv – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa;

arxiv ishi – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha faoliyat;

arxiv fondi – yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui;

arxiv nusxasi – tegishli tartibda tasdiqlangan, arxiv shifri va saqlov birligi varaqlarining raqamlari ko'rsatilgan arxiv hujjatining so'zma-so'z bayon etilgan nusxasi;

arxiv hujjatlarini saqlash – arxivlarda arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashga doir chora-tadbirlar majmui;

arxiv hujjatlaridan foydalanish – arxiv hujjatlarini xizmat, ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ta'lim maqsadida va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa maqsadlarda arxivlar tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etish;

arxiv hujjatlari – fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

elektron nusxa – an'anaviy asosdagi (qog'oz, video, audio kasseta, kinolenta va boshqalar) hujjatlarni raqamlashtirish orqali ularning yaratilgan elektron shakli, asl nusxada mavjud bo'lgan axborotni o'qish yoki ko'rish (eshitish) imkonini beruvchi elektron ko'chirma nusxasi;

ish yuritish – yuridik shaxsning hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini ta'minlab beruvchi jarayon;

idoraviy arxiv – yuridik shaxsning arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

jamlash – arxivni arxiv hujjatlari bilan muntazam to'ldirib borish maqsadida amalga oshiriluvchi arxiv fondi doirasida arxiv hujjatlarini fondlashtirish hamda tashkil etish va jamlash manbalaridan ularni qabul qilib olish maqsadida yo'nalishi va darajasi bo'yicha zaruriy arxiv hujjatlari bilan to'ldirib borishga doir ishlar majmui;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

milliy arxiv fondi – O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5834-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" PF-80-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4463-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida"gi 101-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 14-oktabrdagi 347-um-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi 2024-yil 1-noyabrdagi "O'zarxiv" agentligi direktorining 103-son buyrug'i.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

MAF – Milliy arxiv fondi

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Arxiv hujjatlarini saqlash va arxiv faoliyati sohasi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Jamiyatni retrospektiv axborot bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlash, jamlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	S – seksiyasi: San'at, sport va dam olish; 91 – Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat obyektlari; 91.1 – Kutubxona va arxiv faoliyati; 91.12 – Arxiv faoliyati; 91.12.0 – Arxiv faoliyati.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Milliy arxiv fondi hujjatlarining saqlovini ta'minlovchi davlat arxivlari (respublika, viloyat, shahar va tuman) xodimlarining kasbiy faoliyati doirasidagi malakasi va kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni belgilash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		73230008 Hujjatlarni muqovalovchi	2
		81320047 Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	3
		33410003 Arxivarius (o'rta malakali)	5
		26211001 Arxeograf	6
		26211003 Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrador)	6
		26211005 Arxivchi	6
		26211008 Jamg'armalarni saqllovchi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	73230008 Hujjatlarni muqovalovchi	A1.2	Muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	A1.01.2	Hujjatlarni muqovalashga tayyorlash va varaqlarini tekshirish
				A1.02.2	Muqovalangan va tikilgan hujjatlarni sifatini nazorat qilish
2	81320047 Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	B1.3	Hujjatlarni nusxalash va nusxalar sifatini nazorat qilish	B1.01.3	Nusxa ko'chirish apparatlarini tayyorlash, yaratilgan nusxalar sifatini tekshirish
		B2.3	Arxiv hujjatlarini mikrofilmashtirish va mikrofilm nusxalarini tayyorlash	B2.01.3	Kino va fotohujjatlarning texnik holatini baholash hamda mikrofilmashtirishga tayyorligini tekshirish
				B2.02.3	Mikrofilmashtirish apparatlarini sozlash, hujjatlarni mikrofilmga olish va mikrofilm nusxalarini ko'paytirish
3	33410003 Arxivarius (o'rta malakali)	D1.5	Arxiv hujjatlarini qabul qilish va dastlabki ishlov berish	D1.01.5	Arxivga kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish va qayd etish
				D1.02.5	Hujjatlarni tasniflash va tizimlash
				D1.03.5	Hujjatlarni yig'ma jildlarga shakllantirish, sahifalash va muqovalashga tayyorlash
		D2.5	Arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish	D2.01.5	Arxiv hujjatlarini joylashtirish va saqlanishini ta'minlash
				D2.02.5	Arxiv hujjatlaridan foydalanishni rasmiylashtirish va hujjatlar hisobini yuritish
4	26211001 Arxeograf	E1.6	Arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish (O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi) va hujjatli nashrlarni tayyorlash	E1.01.6	Arxiv hujjatlarini nashrga tayyorlash va ulardan foydalanishni tashkil etish
				E1.02.6	Arxiv hujjatlaridan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishni tashkil etish
				E1.03.6	Istiqbolli hujjatli nashrlar mavzusini ishlab chiqish
		E2.6	Hujjatlarning tashqi belgilarini o'rganish	E2.01.6	Hujjatlarni o'qish, sanasini aniqlash va tavsiflash
				E2.02.6	Tarixiy hujjatlarning kelib chiqishi va haqiqiyligini aniqlash
5	26211003 Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrator)	F1.6	Arxiv hujjatlarini restavratsiya qilish	F1.01.6	Kichik shikastlangan bosma hujjatlarni profilaktik saqlash va tiklash
				F1.02.6	Birinchi va ikkinchi darajadagi ta'mirtalab yig'ma jildlarni restavratsiya qilish, muqovalash va tikish ishlarini olib borish

		F2.6	Noyob va alohida qimmatli arxiv hujjatlari, shuningdek oliy badiiy va tarixiy ahamiyatli asarlar bilan tiklash ishlarini amalga oshirish	F2.01.6	Qog'oz va karton qoplamalarda shikastlangan bosma grafiklarni profilaktik saqlash va tiklash
				F2.02.6	O'ta murakkab, murakkab va o'rta murakkablikdagi tiklash va buzilishlardan saqlash ishlarini bajarish
		F3.6	Qog'oz asosidagi qo'lyozmalarning jismoniy zararlanish holatini baholash, konservatsiya va restavratsiya amaliyotlarini belgilash, muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	F3.01.6	Hujjatning muhimlik darajasini aniqlash va stabilashtiruvchi konsepsiya amaliyotlari orqali tegishli chora-tadbirlarni belgilash
				F3.02.6	Qo'lyozma hujjatlarning muqovasini restavratsiya qilish va qayta tayyorlash
6	26211005 Arxivchi	G1.6	Arxiv hujjatlarini saqlash va hisobga olish	G1.01.6	Arxiv hujjatlarini saqlash sharoitlarini tashkil etish va nazorat qilish
				G1.02.6	Arxiv hujjatlarini fondlashtirish ishlarini amalga oshirish
				G1.03.6	Arxiv hujjatlarini davlat hisobiga olish va hisob hujjatlarini yuritish
		G2.6	Arxiv hujjatlarini jamlash va ulardan foydalanishni tashkil etish	G2.01.6	Arxiv hujjatlarini jamlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish
				G2.02.6	Hujjatlar qimmatligi ekspertizasini o'tkazish, arxiv hujjatlarini tavsiflash va ilmiy-ma'lumotnoma apparatini shakllantirish ishlarini amalga oshirish
7	26211008 Jamg'armalarni saqlovchi	H1.6	Arxiv hujjatlari muhofazasini ta'minlash va foydalanishni tashkil etish	H1.01.6	Hujjatlarni muhofaza qilish va davlat hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish
				H1.02.6	Arxivda hujjatlarning qimmatligini aniqlash va ekspertiza qilishda ishtirok etish
		H2.6	Arxiv fondlari hisobini yuritish va ilmiy-ma'lumotnoma apparatini shakllantirish	H2.01.6	Arxiv hujjatlarini tavsiflash, ilmiy-ma'lumotnoma apparatini yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirish
				H2.02.6	Arxiv hujjatlarini saqlash va davlat hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Hujjatlarni muqovalovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	73230	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi. Ishga munosabat va xulq-atvor: -kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -o'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millati va vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1)Tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba 2)Ta'lim tashkilotlari negizida qisqa muddatli kurs va amaliy tajriba talab etiladi	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	—	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2 — 4 razryadli hujjatlarni muqovalovchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrador)
	6	Jamg'armalarni saqllovchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 - Muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	A1.01.2 - Hujjatlarni muqovalashga tayyorlash va varaqlarini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Muqovalash uchun topshirilgan hujjatlarni qabul qilish
		2. Hujjatlarning to'liqligi va varaqlar ketma-ketligini tekshirish
		3. Hujjatlarni belgilangan tartibda saralash va toifalash
		4. Varaqlarning texnik holatini tekshirish va tozalash
		5. Metall qisqichlar, skrepkalar va hujjatga zarar yetkazuvchi buyumlarni olib tashlash
		6. Muqovalash uchun zarur materiallar va asbob-uskunalarni tayyorlash
		7. Hujjatlarni tikish va muqovalash uchun texnik tayyorlash
		8. Hujjat varaqlarini raqamlash va tartibga keltirish
		9. Muqovaga zarur identifikatsiya ma'lumotlarini kiritish
		10. Inventarizatsiya daftarlarini to'ldirish
		11. Tayyorlangan hujjatlarni keyingi texnologik bosqichga topshirish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarning to'liqligi va ketma-ketligini tekshirish
		Varaqlarning texnik holatini baholash
		Hujjatlarni saralash va tartibga keltirish
		Hujjatlardan ortiqcha buyumlarni xavfsiz olib tashlash
		Muqovalash materiallari va asboblardan foydalanish
		Hujjatlarni tikish va muqovalashga tayyorlash
		Varaqlarni raqamlash
		Muqova yozuvlarini rasmiylashtirish
		Texnologik jarayon davomida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish
		Bilimlar:
		Hujjatlarning tuzilishi va tarkibiy elementlari
		Hujjatlarni muqovalashga tayyorlash tartibi
		Muqovalash va tikishda foydalaniladigan materiallar turlari
		Qog'oz va kartonning asosiy xususiyatlari
		Varaqlarni raqamlash va tartibga keltirish qoidalari
		Hujjatlarga zarar yetkazuvchi omillar
		Muqovalash asboblari va uskunalaridan foydalanish tartibi
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablari
	A1.02.2 - Muqovalangan va tikilgan hujjatlarni sifatini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Muqova va tikuv sifatini vizual tekshirish
		2. Tikuvlarning mustahkamligi va bir tekis bajarilganligini baholash
		3. Muqova materiallarining yaxlitligi va sifatini tekshirish
		4. Muqovadagi yozuvlar va belgilarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish

		5. Hujjat varaqlarining to'liqligi va ketma-ketligini nazorat qilish 6. Varaqlarda mexanik shikastlanishlar mavjudligini aniqlash 7. Muqovalash va tikish ishlarining belgilangan texnologik talablarga muvofiqligini tekshirish 8. Aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish uchun hujjatlarni qayta ishlashga yo'naltirish 9. Sifat talablariga javob beradigan hujjatlarni topshirishga tayyorlash Ko'nikmalar: Muqova va tikuv sifatini baholash Hujjatlarning texnik holatini vizual tekshirish Varaqlar to'liqligi va ketma-ketligini aniqlash Muqovalashdagi nuqsonlarni aniqlash Tikish sifati va mustahkamligini tekshirish Muqovadagi yozuvlarni tekshirish Aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha choralarni qo'llash Muqovalash va tikish texnologiyasi talablariga rioya qilish Bilimlar: Muqovalash va tikish sifati mezonlari Tikuv mustahkamligini baholash usullari Muqova materiallaridagi nuqsonlarni aniqlash usullari Hujjatlarning texnik holatini baholash mezonlari Muqovalash jarayonida uchraydigan nuqsonlar va ularning sabablari Tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish tartibi Muqova yozuvlarini rasmiylashtirish talablari Sifat nazorati jarayonida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Muqovalash va tikish uchun qabul qilingan hujjatlarning butligini saqlash hamda ularga ehtiyotkor munosabatda bo'lish uchun mas'ul 2. Muqovalash va tikish ishlarini belgilangan texnologik talablar asosida sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun mas'ul 3. Muqovalash va tikish ishlarini belgilangan topshiriqlar, yo'riqnomalar va bevosita rahbar nazorati ostida bajaradi
Texnik va/yoki texnologik talab:		Yapon qog'ozlari; Maxsus yelimlar (Tylose MN 2000 methilecellulose va b.); Zarar yetgan hujjatlarni tezlik bilan bartaraf etish uchun mahsulotlar (FILMOPLAST (samokleyka) mahsuloti va b.); Hujjatlardagi eski yelim o'rnini zararsiz ko'chirib berishni ta'minlovchi vositalar (Paravoy karandash, Preservation Equipment moslamasi va b.); Hujjatlarni chang va zamburug'lardan tozalovchi uskunalar (Spirabilia uskunasi va b.).

Kasbning nomi:	Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	81320	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoadi va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda raven bayon qilish; Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3 — 6 razryadli mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Jamg'armalarni saqllovchi
	6	Elektron arxivlar arxivariusi
	6	Fond saqllovchisi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3- Hujjatlarni nusxalash va nusxalar sifatini nazorat qilish	B1.01.3- Nusxa ko'chirish apparatlarini tayyorlash, yaratilgan nusxalar sifatini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Nusxa ko'chirish va mikrofilmlash uskunalarining texnik holatini tekshirish hamda ishga tayyorlash
		2.Nusxa ko'chirish jarayonida foydalaniladigan materiallar va sarf vositalarini tayyorlash
		3.Hujjatlarni nusxalash uchun qabul qilish va ularning jismoniy holatini ko'zdan kechirish
		4.Nusxalash jarayoniga to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar va shikastlanishlarni aniqlash
		5.Hujjatlarni nusxa ko'chirish yoki mikrofilmlash uchun belgilangan tartibda tayyorlash
		6.Nusxa ko'chirish apparatlarida hujjatlarning nusxalarini yaratish
		7.Yaralgan nusxalarning tasvir sifati, to'liqligi va o'qilish darajasini tekshirish
		8.Sifatsiz yoki nuqsonli nusxalarni aniqlash va qayta nusxalash choralari ko'rish
		9.Nusxalash ishlari bo'yicha hisob va hisobot hujjatlarini yuritish
		10.Uskunalardan foydalanish davomida texnika va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Nusxa ko'chirish va mikrofilmlash apparatlarini ishga tayyorlash
		Hujjatlarni nusxalashga tayyorlash va to'g'ri joylashtirish
		Nusxa ko'chirish uskunalarining asosiy funksiyalaridan foydalanish
		Hujjatlarning jismoniy holatini baholash va nuqsonlarini aniqlash
		Nusxalar sifatini vizual va texnik mezonlar asosida nazorat qilish
		Sifatsiz nusxalarni aniqlash va qayta ishlash choralari qo'llash
		Elektron nusxalar va mikrofilmlar bilan ishlash
		Nusxalash ishlari bo'yicha hisobotlarni yuritish
		Kompyuter texnikasi va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish
		Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Mikrofilmlash va nusxa ko'chirish texnologiyalarining asoslari
		Nusxa ko'chirish apparatlari va mikrofilm uskunalarining tuzilishi hamda ishlash prinsiplari

		Hujjatlarni nusxalash va raqamlashtirish tartiblari
		Nusxalar sifatini baholash mezonlari va usullari
		Hujjatlarning jismoniy holatini aniqlash asoslari
		Elektron hujjatlar va raqamli fayllar bilan ishlash asoslari
		Nusxalash jarayonida qo'llaniladigan sarf materiallari va ularning xususiyatlari
		Hujjatlarni saqlash talablari
		Mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asoslari
B2.3- Arxiv hujjatlarini mikrofilmashtirish va mikrofilm nusxalarini tayyorlash	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hujjatlarni nusxalash va mikrofilmlash ishlarini belgilangan texnologik talablar asosida mustaqil amalga oshirish hamda ish sifati uchun javob berish
		2. Nusxalash jarayonida yuzaga keladigan texnik va sifat bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish
		3. Bajarilgan ishlar hisobi, nazorati va natijalarining to'g'riligi uchun javob berish, ish jarayonini belgilangan tartibda mustaqil tashkil etish
	B2.01.3- Kino va fotohujjatlarning texnik holatini baholash hamda mikrofilmashtirishga tayyorligini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1.Kino va fotohujjatlarni mikrofilmashtirish uchun qabul qilish
		2.Hujjatlarning tashqi ko'rinishi va jismoniy holatini ko'zdan kechirish
		3.Kino va fotohujjatlarda mavjud shikastlanishlar, deformatsiyalar va nuqsonlarni aniqlash
		4.Tasvir sifati, aniqligi va saqlanganlik darajasini baholash
		5.Mikrofilmashtirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash
		6.Mikrofilmashtirish uchun yaroqli va yaroqsiz hujjatlarni ajratish
		7.Mikrofilmashtirishdan oldin hujjatlarni tayyorlash ishlarini amalga oshirish
		8.Aniqlangan nuqsonlar va texnik holat bo'yicha qaydlarni rasmiylashtirish
		9.Baholash natijalari bo'yicha tegishli hisobotlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		Kino va fotohujjatlarning texnik holatini baholash
		Hujjatlardagi mexanik va biologik shikastlanishlarni aniqlash
		Tasvir sifati va saqlanganlik darajasini baholash
		Mikrofilmashtirishga tayyorlik mezonlarini qo'llash

		Hujjatlarni mikrofilmashtirish uchun tayyorlash
		Texnik holat bo'yicha dalolatnoma va qaydlarni rasmiylashtirish
		Mikrofilmlash uskunalari bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Kompyuter va elektron hisob tizimlaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Kino va fotohujjatlarning turlari va xususiyatlari
		Kino va fotohujjatlarni saqlash qoidalar
		Hujjatlarning texnik holatini baholash mezonlari
		Tasvir sifati va saqlanganlik darajasini aniqlash usullari
		Mikrofilmashtirishga tayyorlash talablari
		Mikrofilm materiallari va ularning xususiyatlari
		Arxiv hujjatlarini saqlashning me'yoriy talablari
		Hujjatlar bilan ishlashda texnika va yong'in xavfsizligi qoidalar
		Kompyuter texnikasi va elektron hisob tizimlari asoslari
B2.02.3- Mikrofilmashtirish apparatlarini sozlash, hujjatlarni mikrofilmga olish va mikrofilm nusxalarini ko'paytirish		Mehnat harakatlari:
		1.Mikrofilmashtirish apparatlari va yordamchi uskunalarning texnik holatini tekshirish hamda ishga tayyorlash
		2.Mikrofilmashtirish apparatlarini belgilangan texnologik parametrlar asosida sozlash
		3.Mikrofilmashtirish uchun qabul qilingan hujjatlarni tayyorlash va joylashtirish
		4.Hujjatlarni mikrofilmga olish jarayonini amalga oshirish
		5.Svetofiltrlar va boshqa optik vositalardan foydalanish
		6.Mikrofilm nusxalarini tayyorlash va ko'paytirish ishlarini bajarish
		7.Olingan mikrofilm nusxalarining sifati va o'qilish darajasini tekshirish
		8.Mikrofilmlash jarayonida aniqlangan texnik nosozliklarni qayd etish va bartaraf etish choralarini ko'rish
		9.Mikrofilmlash ishlari bo'yicha hisob va hisobot hujjatlarini yuritish
		10. Texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Mikrofilmashtirish apparatlarini ishga tayyorlash va sozlash
		Hujjatlarni mikrofilmga olish texnologiyasini amalda qo'llash

		Mikrofilm nusxalarini tayyorlash va ko'paytirish Svetofiltrlar va optik vositalardan foydalanish Mikrofilm tasmalari bilan ishlash va ularni saqlash Mikrofilm nusxalarining sifatini baholash Oddiy texnik nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish Mikrofilmlash ishlari bo'yicha hisob va hisobotlarni yuritish Kompyuter va maxsus texnik vositalardan foydalanish Texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish Bilimlar: Mikrofilmlash texnologiyasi va jarayonlari Mikrofilmlashtirish apparatlari va optik uskunalarning tuzilishi hamda ishlash prinsiplari Mikrofilm tasmalarining turlari va xususiyatlari Hujjatlarni mikrofilmlashga tayyorlash talablari Mikrofilm nusxalarini tayyorlash va ko'paytirish tartibi Mikrofilm sifatini baholash mezonlari Hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlashning asosiy qoidalar Elektron hisobot yuritish asoslari Zamonaviy kompyuter texnikasi va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish asoslari Mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalar
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Mikrofilmlashtirish qurilmalarini texnik talablar asosida sozlash, ishga tayyorlash va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun javobgarlik. 2. Mikrofilmlashtirish jarayonini belgilangan texnologik reglament asosida mustaqil amalga oshirish va ish sifatiga javob berish. 3. Qurilmaning xavfsizlik tizimlarini tekshirish, ishga tushirish va favqulodda holatlarda xavfsizlik choralarini mustaqil qo'llash.
Texnik va/yoki texnologik talab:		Mikrofilm uskunalari, nusxa ko'chirish apparatlari, skanerlar va plyonkaga ishlov berish uskunalarning tuzilishi va ishlash prinsipi Yoritish darajasi, tasvir ravshanligi va masshtab parametrlari Optik tizimlar (obyektiv, yoritish tizimi, fokuslash mexanizmlari) Kompyuter va raqamlashtirish skanerlari (mikrofilmlarni raqamli formatga o'tkazish uchun)

Kasbning nomi:	Arxivarius (o'rta malakali)
Mashg'ulot nomining kodi:	33410
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lganligi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi; Maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi. Ishga munosabat va xulq-atvor: Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		6	Arxiv saqlovxonasi mudiri
		6	Arxivshunos (arxiv ishi bo'yicha uslubchi)
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
D1.5- Arxiv hujjatlarini qabul qilish va dastlabki ishlov berish	D1.01.5- Arxivga kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish va qayd etish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Arxivga topshirilayotgan hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish	
		2. Hujjatlarning miqdori, tarkibi, jismoniy holati va saqlash muddatlarini tekshirish	
		3. Hujjatlarning to'liqligi, sahifalanganligi hamda rekvizitlarining mavjudligini aniqlash	
		4. Hujjatlarni qabul qilish-topshirish ro'yxatlari va dalolatnomalari bilan solishtirish	
		5. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirish	
		6. Qabul qilingan hujjatlarni maxsus jurnal yoki elektron hisob tizimida ro'yxatga olish	
		7. Hujjatlarga fond, ro'yxat va yig'majild rekvizitlarini birlashtirish	
		8. Hujjatlarni vaqtinchalik saqlash joylariga joylashtirish	
		9. Hujjatlarni keyingi tasniflash va tizimlashtirish ishlariga tayyorlash	
		10. Qabul qilingan hujjatlar bo'yicha hisob ma'lumotlarini shakllantirish	
		Ko'nikmalar:	
		Hujjatlarni qabul qilish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish	
		Hujjatlarning to'liqligi va jismoniy holatini baholash	
		Hujjatlarning saqlash muddatlarini aniqlash va qo'llash	
		Arxiv hisob hujjatlarini yuritish	
		Hujjatlarni jurnal va elektron bazalarda ro'yxatga olish	
		Qabul qilish-topshirish hujjatlarini rasmiylashtirish	
		Arxiv nomenklaturasi va tasniflash elementlaridan foydalanish	
		Elektron arxiv dasturlari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash	
		Hujjatlarni saqlash talablariga muvofiq joylashtirish	
		Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha dalolatnoma va xizmat yozuvlarini tayyorlash	
		Bilimlar:	
		Arxiv ishi to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar	
		Arxiv hujjatlarini qabul qilish va hisobga olish tartibi	

		Hujjatlar nomenklaturasi va saqlash muddatlarini belgilash asoslari
		Arxiv fondi, ro'yxat va yig'majild tushunchalari
		Hujjatlarning rekvizitlari va rasmiylashtirish talablari
		Arxiv hujjatlarini tasniflash va tizimlashtirish asoslari
		Arxiv hisob hujjatlari va ularni yuritish tartibi
		Elektron arxiv tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash asoslari
		Hujjatlarning jismoniy holatini baholash mezonlari
		Mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va axborot xavfsizligi talablari
	D1.02.5- Hujjatlarni tasniflash va tizimlash	Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatlarni mazmuni, turi va saqlash muddatiga ko'ra saralash
		2. Hujjatlarni xronologik, mavzuli va tarkibiy belgilar asosida tizimlashtirish
		3. Hujjatlar nomenklaturasiga muvofiq yig'ma-jildlar guruhlarini shakllantirish
		4. Hujjatlarning tegishli yig'ma-jildlarga mansubligini aniqlash
		5. Hujjatlarni saqlash muddatlariga muvofiq ajratish
		6. Hujjatlarni hisobga olish va tasniflash bo'yicha qaydlarni yuritish
		7. Hujjatlar tarkibi va joylashuvidagi nomuvofiqliklarni aniqlash
		8. Tasniflangan hujjatlar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish
		9. Tayyorlangan yig'ma-jildlarni keyingi ishlov berish bosqichiga topshirish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarni mazmuniga ko'ra tasniflash va tizimlashtirish
		Hujjatlar nomenklaturasi bilan ishlash
		Hujjatlarni saqlash muddatlari bo'yicha guruhlash
		Hujjatlarni hisobga olish va ro'yxatga olish
		Elektron arxiv tizimlarida ma'lumotlarni kiritish va yangilash
		Normativ-uslubiy hujjatlar talablarini amaliyotda qo'llash
		Arxiv axborot-qidiruv tizimlaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Arxiv ishining asoslari
		Hujjatlar nomenklaturasi va saqlash muddatlari
		Hujjatlarni tasniflash va tizimlashtirish tartibi
		Arxiv fondlari va yig'ma-jildlarni shakllantirish qoidalar
		Elektron arxiv tizimlari bilan ishlash asoslari
		Arxiv hisob hujjatlarini yuritish tartibi
		Arxivning axborot-qidiruv tizimlari

	D1.03.5- Hujjatlarni yig'ma jildlarga shakllantirish, sahifalash va muqovalashga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatlarni yig'ma-jild tarkibiga joylashtirish
		2. Har bir ishni varaqlab chiqish va sahifalarni ketma-ket raqamlash
		3. Sahifalashning to'g'riligini tekshirish
		4. Yetishmayotgan yoki noto'g'ri joylashtirilgan sahifalarni aniqlash va qayd etish
		5. Sahifalar soni bo'yicha yakuniy tasdiqlovchi yozuvni rasmiylashtirish
		6. Hujjatlarni tikish uchun tayyorlash
		7. Tikish uchun zarur material va anjomlarni tayyorlash
		8. Tikilgan yig'ma-jildlarni muqovalashga tayyorlash
		9. Muqovaga yig'ma-jild rekvizitlarini kiritish
		10. Muqova yozuvlarini belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirish
		11. Hujjatlarni chang va yengil ifloslanishlardan tozalash
		12. Tayyorlangan yig'ma-jildlarni belgilangan joyga joylashtirish
		13. Bajarilgan ishlar bo'yicha tegishli hisob va qaydlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarni yig'ma-jildlarga shakllantirish
		Hujjatlarni sahifalash va sahifalash natijalarini rasmiylashtirish
		Hujjatlarni tikish va muqovalashga texnik tayyorlash
		Hujjatlarning jismoniy holatini baholash
		Muqova rekvizitlarini rasmiylashtirish
		Arxiv hujjatlariga dastlabki texnik ishlov berish
		Hujjatlarni saqlashga tayyorlash bo'yicha talablarni qo'llash
		Bilimlar:
		Yig'ma-jildlarni shakllantirish qoidalari
		Hujjatlarni sahifalash tartibi
		Tikish va muqovalash texnologiyasi
		Muqovalash materiallari va ularning xususiyatlari
		Hujjatlarning jismoniy holatini baholash mezonlari
		Arxiv hujjatlarini saqlashga tayyorlash talablari
		Hujjatlarni rasmiylashtirish rekvizitlari
		Mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Arxiv hujjatlarini qabul qilish va dastlabki ishlov berish jarayonida belgilangan talablar bajarilishi hamda natijalar sifati uchun javobgarlik
		2. Hujjatlarni qabul qilish, tasniflash va tikishga tayyorlash jarayonini mustaqil tashkil etish hamda belgilangan metodik talablar asosida ish bajarilishini nazorat qilish

		3. Ish jarayonida kichik guruh xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, murakkab holatlarda qaror qabul qilish va natijalar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish
D2.5- Arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish	D2.01.5- Arxiv hujjatlarini joylashtirish va saqlanishini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Saqlash uchun topshirilgan hujjatlarni qabul qilish
		2. Raqamlangan, tikilgan va muqovalangan hujjatlarni qabul qilib olish
		3. Hujjatlarga ilova qilingan ro'yxatlar va dalolatnomalarni tekshirish
